



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

O'ZBEKISTON MUSTAQILLIGI YILLARIDA SOLIQ TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOQICHLARI

Mirzaev Zoyir Toirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya:

Ma'lumki har bir davlatning nufuzi va qudratini soliqlar asosida shakllantirilgan davlat byudjeti, xususan uning moliya tizimi tashkil etadi. Mamlakatimiz mustaqilligi qo'lga kiritilgandan so'ng barcha sohalarda bo'lgani kabi soliq sohasida ham izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish, davlatning moliyaviy tizimini mustahkamlash orqali, davlatning byudjet tizimi mexanizmini yaratish, erkin xususiy tadbirkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratish, bozor munosabatlariga javob beradigan mustahkam iqtisodiy ishlab chiqarish tizimini yaratishdan iborat.

Kalit so'zlar: mahalliy soliq, mulkning bozor qiymati, soliq elementlari, byudjet salohiyati, mahalliy byudjet, mahalliy soliqlar, soliqli daromadlar.

Kirish:

Soliqlar davlat byudjetini to'ldiruvchi asosiy elementlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun soliqlarga davlat byudjetining daromad qismini shakllantiruvchi, eng muhim bo'lgan umum davlat vazifalarini hal etish uchun zarur miqdordagi mablag'i ni jamlantiruvchi tizim sifatida qarash lozim. Soliq tizimi aniq maqsadga qaratilgan moliyaviy siyo-sat bo'lishi bilan birgalikda yalpi milliy mahsulotning bir qismini qayta taqsimlaydi hamda shu tarzda iqtisodiyotning va ijtimoiy hayotning tarkibiy tuzilishini o'zgartirishda, aholini ijtimoiy himoyalash kafolatini ta'minlashda bevosita ishtirok etadi.

Soliq tizimini isloh qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad - korxonalar zimmasidagi soliq, yukini yengillashtirilishi orqali ishlab chiqarishni jonlashtirish va iqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishishdir. Bu mamlakatimizning soliq siyosati bilan amalga oshiriladi va tartibga solinadi. Zero, har qanday mamlakatning soliq siyosati o'ziga xosligi bilan ajralib turadi, chunki har bir davlatning iqtisodini yuksalishi, o'sish cyp'ati, aholisining faravonligi, investitsiya qilish kudrati unda joriy qilingan soliqlarning umumiyy miqdori, yukining qay darajadaligiga bog'liq. Bularni



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

belgilash va amalga oshirish mamlakatda olib borilayotgan soliq siyosatiga bog‘liq. Shy jihatdan O‘zbekistonning soliq siyosati ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli kuchayib, o‘z oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda soliq siyosati muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Soliq siyosati amalda davlat boshqaruvining boshqa unsurlari: pul-kredit siyosati, baho siyosati kabilar bilan birgalikda mamlakatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga faol ta’sir etadi.

Birinchi bosqich 1991-1994-yillar - O‘zbekistonning o‘z soliq tizimini tashkil etish va soliqlarning xazinaviy ahamiyatini oshirish bosqichidir.

Respublikamizning o‘z soliq tizimini yaratishda 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan “Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida”gi qonun birinchi qonun bo‘ldi. U o‘zida birinchi marta soliq tizimining tuzilishi va ishlashining umumiy asoslarini aniqlab berdi, soliqlarni hisoblash va undirish tartibini o‘rnatdi. 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi fuqorolari, chet el fuqorolari va fuqoroligi bulmaganlardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida”gi qonunga bir qancha o‘zgarishlar bilan qabul qilindi. Bu qonunga binoan soliq ob‘ekti kengaytirildi, ya’ni ilgari daromad solig‘ini jamoa xo‘jaligi orqali to‘lab yurgan jamoa a’zolari to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zlari to‘laydigan bo‘ldilar.

1992-yil 1-yanvardan boshlab korxonalardan undiriladigan o‘rmondan olinadigan daromad solig‘i va bir qator boshqa soliqlar bekor qilindi.

1992-yil 1-yanvardan boshlab korxonalardan 30% stavkada qo‘shilgan qiymat solig‘i, 15%dan 45%gacha daromad (foyda) solig‘i; aksiz solig‘i; mol-mulk solig‘i; respublikadan tashqariga olib chiqiladigan mahsulotlar va xomashyo resurslariga soliqlar joriy etildi.

1993-yilda davlat byudjeti taqchillagini kamaytirish va daromad qismini mustaxkamlash maqsadida resurs to‘lovlari va suv uchun to‘lov joriy qilindi.

1993-yilda ishlab chiqilgan tartibga ko‘ra xazinani to‘ldirish, shuningdek, resurslardan oqilona foydalanishni ta’minalash maqsadida 6 foizli resurslar solig‘i va 30 foizli amortizatsiya solig‘i joriy etildi. 1992-yil 7-mayda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Bunday soliqlarga jismoniy shaxslarning mulk solig‘i, yer solig‘i, kurort zonalarida ishlab chiqarish ob‘ektlari qurilish solig‘i, reklama solig‘i, avtomobil vositalarini qayta sotish solig‘i, transport vositalarini egalaridan soliqlar va turli xil yig‘imlar kiritildi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Soliq islohotlarining **ikkinchi bosqichi** soliqlarni bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish va korxonalarning ishlab iqrarishni rag‘batlantirishga qaratilgan davridir. Bu davr 1995-1997-yillarni o‘z ichiga oladi.

Bu davrda soliqlar ishlab chiqarish samarodorligini oshirishga qaratilib, turli xil imtiyozlar berildi. Ayniqsa, yuridik shaxslarning foyda (daromad) solig‘idan imtiyozlar ko‘p edi, 1995-yil dan boshlab korxonalar har bir foiz mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirgani uchun 0,3 foiz foyda solig‘i stavkasi kamaytirildi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish va tuzilmaviy jihatdan qayta qurish soliq tizimini isloh qilishni talab etdi va ko‘plab korxonalar va tashkilotlarning foyda solig‘ini daromad solig‘i to‘lashga o‘tishi amalga oshirildi. Uning o‘rtacha stavkasi 37 foiz qilib belgilandi. Soliq to‘lovchilar uchun imtiyozlar ko‘zda tutildi. Qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun foyda solig‘i stavkasi rentabellik darajasidan kelib chiqib, tabaqalashtirilib belgilandi, yani rentabellik darajasi 40%gacha bo‘lgan korxonalar uchun 3 foizli stavkada, rentabellik darajasi 40%dan yuqori bo‘lgan korxonalar uchun 20 foizli stavkada undirildi.

1995-yildan resurs soliqlari rolini oshirish maqsadida yer osti foydali qazilmalaridan foydalanganlik uchun soliq va qishloq xo‘jaligi maqsadlarida foydalilanidigan yerkarta yer solig‘i joriy qilindi, inflyatsiya darajasiga qarab ular xar yili qayta ko‘rib chiqiladigan bo‘ldi.¹

Sarmoyadorlar uchun rag‘batlantirishlar soliq tizimining barqarorlashuviga ko‘mak beradi. 1996-yilning 1-yanvarigacha ro‘yxatdan o‘tkazilgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarga soliqqa tortish tizimida daromad yoki foydani soliqqa tortishni tanlash huquqi taqdim etildi, boshqa barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar esa daromad solig‘iga o‘tkazildi.

1996-yil 1-oktyabrdan respublikada ishlab chiqariladigan va chetdan olib kelinadigan alkagol va tamaki maxsulotlarga aksiz markasi joriy etildi.

1997-yildan boshlab ekologiya solig‘i joriy qilindi(2006-yildan bekor qilingan).

Soliqlarni bozor munosabatlarda qatnashishini kuchaytirish uchun ularning hammasi uchun yagona huquqiy asos O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 1997-yil 24-aprelda qabul qilindi.

Soliq kodeksining qabul qilinishi soliq qonunchiligini mustahkamlabgina kolmay, soliqlarni mahsulotlarni eksportini, import tovarlar o‘rniga mahsulotlar ishlab

¹ III. Тошматов “Корхоналарни ривожлантиришда солиқларнинг роли” мавзусида иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган монографияси. Тошкент-2008 йил 91-95 бетлар



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

chiqarishni, nogironlarni ishlab chiqarishga qatnashishini, mehr-muruvvat ishlarni rag‘batlantirish vazifasini kuchaytirdi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi 1997-yil 29-avgustdagи Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi 1998-yil 12-yanvardagi Qaroriga muvofiq soliq organlarining asosiy funksiya va vazifalari belgilandi.

Soliq islohotining **uchinchi bosqichi** 1998-yildan – 2005-yilgacha davom etdi. Bu bosqichni soliq tizimida soliqlarni ixchamlashtirish konsepsiyasining boshlanish davri deb atash mumkin.

Bu bosqichda soliq to‘lovchi yuridik shaxslarga imkonи boricha soddalashgan, ixchamlashgan soliq tizimi joriy etilib, ularning soliq hisoblari, hisobotlari, soliq to‘lash muddatlari ixchamlashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig‘ini joriy etish to‘g‘risida”gi 1998-yil 10-oktyabrdagi PF-2086-son Farmoniga ko‘ra 1999-yildan boshlab qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig‘i jriy qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi 159-soni qaroriga asosan “Kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o‘tishni qo‘llash to‘g‘risida”gi qarorga asosan kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lash joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 10-aprel 1153-soni “Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni bilan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari 1998-yildan boshlab yalpi daromaddan soliq va mol-mulk solig‘ini to‘laydigan bo‘ldi.

Soliq tizimini ixchamlashtirish soliq hisoblovchi xodimlar, davlat soliq idoralari va bank xodimlarining ko‘p minglab soat vaqtlarini iqtisod qilishga, ularni korxonalar foaliyati tahliliga bag‘ishlashga imkoniyat yaratildi.

Soliq islohotining **to‘rtinchi bosqichi** 2005-2017-yilgacha bo‘lgan davr. Bu bosqichni soliq tizimida tadbirkorlik sub’ektlarini har tomonlama rag‘batlantirish, ular faoliyatini qo‘llab quvvatlash, soliq siyosatini takomillashtirish va erkinlashtirish davri deb atash mumkin.

Shu o‘rinda Respublika Prezidentining 2005-yil 20-iyundagi PF-3620 “Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag‘batlantirish borasidagi



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonini aloxida takidlاب o'tish lozim. Unga asosan 2005-yilning 1-iyulidan boshlab mikrofirma va kichik korxonalar uchun ilgari to'lab kelingan 4 ta to'lov - yagona soliq hamda byudjetdan tashkari Pensiya jamg'armasi, Yul va Maktab talimi jamg'armalariga majburiy ajratmalar o'rniga yagona soliq to'lovi joriy etilishi kichik biznes zimmasidagi soliq yukining sezilarli darajada pasayishiga olib keldi.

2007-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi prezidentining №-532 Qaroriga asosan savdo va umumiy ovqaglanish korxonalarini soliqqa torgish tizimi birmuncha soddalashtirilgan edi. Yani, avvalgi soliqqa tortish tartibida savdo va umumiy ovqatlanish faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar uchun belgilangan yalpi daromad solig'i, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga. Respublika yo'l jamg'armasiga, Maktab talimii rivojlantirish jamg'armasiga ajratiladigan majburiy to'lovlар o'rniga yalpi tushumdan to'lanadigan yagona soliq to'lovi joriy egildi.

Soliq islohotining **beshinchi bosqichi** 2017-2021-yillarni o'z ichiga oladi. Soliq tizimida amalga oshirilgan islohotlar quydagilardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to'g'risida" gi Farmoni bilan (29.06.2018 y. PF-5468) mamlakatda soliq islohotlarining asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Soliq yukini keskin pasaytirish maqsadida- tovar aylanmasidan 3,2 foiz miqdorda olinadigan ajratmalardan voz kechildi, mulk solig'i stavkasi 5 foizdan 2 foizga pasaytirildi, QQS stavkasi 20 foizdan 15 foizga va yagona ijtimoiy to'lov stavkalari 25 foizdan 12 foizga tushirildi. Soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi va ish haqiga soliq yuki qariyb 2 baravar pasaydi.

Solishtirish uchun: Yevropa davlatlari Shvesiyada daromad solig'i stavkasi 56,9%, Angliyada 20-45%, Daniyada 55,6%, Ispaniyada 45%, QQS stavkasi Daniya, Norvegiya, Shvesiyada — 25 %, Finlyandiyada — 24%, Vengriyada — 27 %, Rossiya, Belarus va Ukrainada — 20 %.

Tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan umumiy tarzda berilgan yengilliklar va imtiyozlar natijasida ularning ixtiyorida 170,5 trln.so'm mablag' qoldi (respublikaning 2016 yildagi soliq tushumlari daromadidan 5,4 baravarga ko'p). Kichik korxonalarning va yirik korxonalarning soliq yuki o'rta sidagi tavofut keskin kisqardi va buning natijasida kichik korxonalarning o'z biznesini bo'lmasdan kengayishi uchun shart-sharoit yaratildi. Tadbirkorlar tomonidan soliq yukini kamaytirish maqsadida o'z biznesini alohida yuridik shaxslarga bo'lish holatlari keskin kamaydi. Jami soliq va majburiy to'lovlар soni 13 tadan 9 tagacha kamaydi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Yirik soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish inspeksiyasining tashkil etilishi 2021 yilda byudjet tushumlarining 64 foizini kafolatlagan holda, 2020 yilning iyun oyidan Davlat soliq boshqarmalarida QQS ma‘murchiligining markazlashtirilishi 20 foiz soliq tushumlarini yoki jami 84 foizini ta‘minlash imkoniyatini berdi.

Teng raqobat sharoitini yaratish maqsadida, 84 ta turli soliq imtiyozlari bekor qilindi. Individual imtiyozlar berish amaliyotidan voz kechildi. Shuningdek, 2019-yil 1-oktyabrdan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 20 foizdan 15 foizgacha pasaytirildi. 2023-yildan ushbu stavka 12 foizga tushirilishi belgilangan.

Soliq yukining teng taqsimlanishi natijasida QQS to‘lovchilari soni 24 baravarga, foyda solig‘i to‘lovchilari 21,1 baravarga, suv solig‘i to‘lovchilari 38,7 baravarga va yer solig‘i to‘lovchilari 42 baravarga ko‘paydi.

Yashirin iqtisodiyotni jilovlash hisobiga soliq bazasini kengaytirish maqsadida, zamonaviy soliq ma‘murchilining yangi instrumentlari - Elektron hisobvaraqtaklulari, onlayn nazorat kassa mashinalaridan foydalanish, tovarlarni markirovkalash, elektron shartnama tizimlari joriy etilganligi natijasida, 2016-yilda YaIM yashirin iqtisodiyotning ulushi 59 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib 7 foiz punktga pasaytirildi yoki 52 foizga tushirildi. Bu o‘z navbatida soliq tushumlarining oshishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatib, 2016-yilga nisbatan 2021-yilda tushumlar 4 baravarga o‘sdi.

Xulosa va takliflar.

O‘zbekistonda soliq tizimini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha quyidagi takliflarni keltiramiz:

O‘zbekistonda turli xil imtiyozlar va bo‘shliqlarga ega bo‘lgan murakkab soliq kodeksi mavjud bo‘lib, bu soliq to‘lovchilarga rioya qilishni qiyinlashtiradi. Soliq kodeksini soddalashtirish va imtiyozlar sonini kamaytirish soliq to‘lovchilar uchun soliq majburiyatlarini tushunish va bajarishni osonlashtirishi mumkin.

O‘zbekistonda soliq ma‘muriyatichilagini soliq qonunchilagini qo‘llash bo‘yicha soliq organining salohiyatini kuchaytirish, soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash va ularga rioya etilishini rag‘batlantirish orqali yaxshilash mumkin.

O‘zbekistonning soliq bazasi tor, bunda soliq to‘lovchilar kam sonli davlat byudjetiga hissa qo‘shadi. Soliq bazasini yangi soliqlarni joriy etish yoki amaldagi soliqlarni ilgari ozod qilingan tarmoqlarga kengaytirish orqali kengaytirish daromadlarni oshirishi va amaldagi soliq to‘lovchilar yukini kamaytirishi mumkin.

Soliq to‘lovchilar soliq tizimini adolatli va shaffof deb hisoblaganlarida, soliq qonunlariga ko‘proq rioya qilishadi. Ixtiyoriy rioya qilishni rag‘batlantirish bo‘yicha

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

chora-tadbirlarni amalga oshirish, masalan, soliq hisobotlarini taqdim etish tartib-qoidalarini soddalashtirish va soliq to'lovchilarni o'qitish va yordam ko'rsatish, rioya qilish stavkalarini yaxshilashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
2. Нормурзаев У. Х. 2021 йилдаги солик маъмурчилиги ҳамда солик кодексига киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар юзасидан //Интернаука. – 2021. – Т. 6. – №. 182 част 2. – С. 99.

